

**INGLIZ TILINI MUSTAQIL O’RGANISHNING YANGI TRANSFORMATSION
YONDASHUVLARI: NAZARIY TAHLIL VA TIZIMLASHTIRISH**

Ayyubxon Tursunboyev Adxamjon o’g’li
Namangan Davlat Pedagogika Instituti, 1-bosqich tayanch doktoranti
Tel: +99894 070 07 30 Email: ayyubkhan.real@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205711>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini mustaqil o’rganishning yangi transformatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Mustaqil o’rganish va yangi transformatsion ta’limning nazariy asoslari yoritilib, sun’iy intellekt texnologiyalari, mobil ta’lim, personalizatsiyalashgan ta’lim, mikroo’rganish ham virtual hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning o’ziga xos xususiyatlari tavsiflangan. Ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida ingliz tilini mustaqil o’rganishning transformatsion yondashuvi tizimlashtirildi va ularning o’quvchilarning o’z-o’zini boshqarish, refleksiya hamda umrbod ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o’rni nazariy jihatdan asoslandi.

Kalit so’zlar: ingliz tili, mustaqil o’rganish, transformatsion ta’lim, sun’iy intellekt, mobil ta’lim, mikroo’rganish, virtual hamkorlik, personalizatsiyalashgan ta’lim.

Аннотация

В данной статье проанализированы новые трансформационные подходы к самостоятельному изучению английского языка. Рассмотрены теоретические основы самостоятельного обучения и современного трансформационного образования, а также охарактеризованы особенности подходов, основанных на технологиях искусственного интеллекта, мобильном обучении, персонализированном обучении, микрообучении и виртуальном сотрудничестве. В результате анализа научной литературы были систематизированы трансформационные подходы к самостоятельному изучению английского языка, а также теоретически обоснована их роль в развитии у обучающихся навыков саморегуляции, рефлексии и компетенций непрерывного образования на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: английский язык, самостоятельное обучение, трансформационное образование, искусственный интеллект, мобильное обучение, персонализированное обучение, микрообучение, виртуальное сотрудничество.

Abstract

This article analyzes new transformational approaches to independent English language learning. The theoretical foundations of self-directed learning and modern transformational education are examined, and the distinctive features of approaches based on artificial intelligence technologies, mobile learning, personalized learning, microlearning, and virtual collaboration are described. As a result of the analysis of scientific literature, transformational approaches to independent English language learning were systematized, and their role in developing learners’ self-regulation, reflection, and lifelong learning competencies was theoretically substantiated.

Keywords: English language, independent learning, learner autonomy, transformative learning, artificial intelligence, mobile learning, personalized learning, microlearning, virtual collaboration.



Kirish. Bugungi ta’lim imkoniyatlari globallashuv jarayonlari sababli tez sur’atlarda ko’payib bormoqda. Raqamli ta’lim sharoitida ko’plab til o’rganuvchilari o’zlari uchun qulay vaqtda o’zlarining til ko’nikmalarini oshirib borib, qisqa muddatda yuqori natijalarga erishayotganliklari juda ham ahamiyatlidir. Texnologiyaning globallashuvi ta’limning ko’plab sohalarining rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shibgina qolmay, o’rganishning yangi transformatsion yondashuvlarini vujudga keltirdi. Globallashuv jarayonlarining tezlashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ingliz tilini o’rganishga bo’lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Ingliz tili bugungi kunda faqatgina muloqot tili emas, balki ilm-fan, texnologiya, biznes va ta’lim olishning asosiy tillaridan bir sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababli ta’lim tizimida ingliz tilini samarali o’qitish va o’rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So’nggi yillarda raqamli ta’lim paradigmasida sezilarli o’zgarishlar yuz berib, an’anaviy o’qituvchi markazda bo’lgan ta’lim modeli sekin-asta o’quvchi markazda bo’lgan ta’lim modeli bilan almashmoqda. Bu yondashuv asosida o’quvchi passiv holda emas, balki o’z ta’lim faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etuvchi faol subyektga aylanadi. Natijada, mustaqil ta’lim va o’zini-o’zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi.

Ingliz tilini mustaqil o’rganish jarayoni ham texnologik taraqqiyot ta’sirida tubdan transformatsiyalashmoqda. Avvallari mustaqil o’rganish darsliklar, lug’at kitoblar va audio materiallar bilan amalga oshirilgan bo’lsa, bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari, mobil ilovalar, onlayn ta’lim platformalari, virtual ta’lim muhiti va adaptiv o’quv tizimlari ushbu jarayonning ajralmas qismiga aylandi. ChatGPT, Gemini, Duolingo, Elsa Speak va boshqa raqamli vositalar o’quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda til ko’nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ingliz tilini mustaqil o’rganish jarayonida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, generativ sun’iy intellekt vositalari, jumladan ChatGPT kabi modellar o’quvchilarga individual maslahatlar berish, yozma va og’zaki nutqni rivojlantirish, tezkor fikr-mulohaza olish hamda shaxsiylashtirilgan o’quv materiallarni yaratish imkonini bermoqda. Bu kabi texnologik vositalar ta’lim jarayonining transformatsiyalashuviga, o’quvchilarning reflektiv fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga va umrbod ta’lim (lifelong learning) kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. ChatGPT yordamida o’quvchi o’zining avvalgi o’rganish strategiyalarining samarasizligini anglab, ularni qayta ko’rib chiqish va yangi strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Bu jarayon Mezirow tomonidan tavsiflangan “perspektiv transformatsiyasi” bosqichlariga mos keladi [1].

Kasneci va hammualliflar (2023) generativ sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan bo’lsa, Reinders va White texnologiyalar hamda o’quvchi avtonomiyasi o’rtasidagi bog’liqlikni yoritadilar. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati mustaqil o’rganish, transformatsion ta’lim yoki sun’iy intellekt texnologiyalarining alohida jihatlariga e’tibor qaratgan bo’lib, ingliz tilini mustaqil o’rganishning yangi transformatsion yondashuvlarini tizimli tasniflash alohida tadqiqot obyekti sifatida ko’rib chiqilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilini mustaqil o’rganishning yangi transformatsion yondashuvlarini tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini aniqlash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan o’quv muhitining imkoniyatlarini tavsiflashdan iborat. Mazkur tadqiqotda "transformatsion yondashuvlar" tushunchasi ingliz tilini mustaqil o’rganish jarayonining mazmuni, shakli va

vositalarini sifat jihatidan o'zgartirayotgan innovatsion pedagogik hamda raqamli texnologiyalar majmui sifatida talqin qilinadi.

Mustaqil o'rganish tushunchasining nazariy asoslari

Mustaqil o'rganish (learner autonomy) zamonaviy pedagogika va xorijiy tillarni o'qitish metodikasining eng muhim konsepsiyalaridan biri. Ushbu tushuncha o'quvchining o'z ta'lim faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi, boshqarish hamda natijalarini baholashi bilan tavsiflanadi. Mustaqil o'rganishning shakllanishi va rivojlanishi umrbod ta'lim (lifelong learning) konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarda mustaqil bilim olish, o'zini rivojlantirish va yangi sharoitlarga moslashish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil o'rganish nazariyasining shakllanishda Henri Holecning izlanishlari muhim ahamiyatga ega. U mustaqil o'rganishni “o'z o'qishini boshqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga olish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Bunga ko'ra, o'quvchi ta'lim jarayonida o'quv maqsadlarini belgilash, o'quv mazmunini tanlash, foydalaniladigan usul va strategiyalarni belgilash, o'quv jarayonining borishini kuzatish hamda erishilgan natijalarni baholash vazifalarini mustaqil amalga oshirishi lozim [2].

Little mustaqil o'rganishni o'quvchining psixologik xususiyatlari bilan bog'laydi va uni reflektiv fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari orqali izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, mustaqillik o'quvchining yakka holda faoliyat yuritishini emas, balki o'z ta'lim faoliyati uchun mas'uliyatni ongli ravishda qabul qilishini anglatadi [3]. Shu sababli mustaqil o'rganish o'quvchining o'qituvchidan ajralib chiqishini emas, balki o'qituvchi bilan hamkorlik asosida o'z o'quv faoliyatini boshqarish qobiliyatini shakllantirish jarayoni.

Benson mustaqil o'rganishni o'quvchining ta'lim jarayoni ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyati sifatida tavsiflaydi va uni asosiy yo'nalishda yoritib beradi: o'quv jarayonini boshqarish, kognitiv faoliyatni nazorat qilish hamda ta'lim mazmuni tanlash imkoniyati. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'quvchilarning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratmoqda chunki raqamli vositalar o'quvchilarga o'z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos o'quv materiallarini tanlash imkonini beradi [4].

So'nggi yillarda mustaqil o'rganish konsepsiyasi texnologik taraqqiyot ta'sirida yangi ahamiyat kasb etmoqda. Reinders va White mustaqil o'rganishning texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va individual ta'lim yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [5]. Mustaqil o'rganish bugungi kunda nafaqat pedagogik yondashuv, balki raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi muhim konsepsiya sifatida e'tirof etilmoqda.

Ingliz tilini mustaqil o'rganishning yangi transformatsion yondashuvlari

Ingliz tilini mustaqil o'rganish jarayoni so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'sirida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. An'anaviy mustaqil o'rganish asosan bosma darsliklar va lug'at kitoblardan iborat bo'lgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchilarga individual ehtiyojlarida moslashtirilgan, interaktiv va moslashuvchan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi xorijiy tillarni o'rganish jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib keldi. Xususan, ChatGPT, Gemini, Claude va Microsoft Copilot kabi

generativ sun’iy intellekt vositalari foydalanuvchilar bilan tabiiy muloqot qilish, grammatik xatolarni aniqlash, yozma ishlarga tezkor ravishda fikr-mulohaza bildirish va individual o’quv materiallarni yaratish imkoniyatiga ega.

Kasneci va hammualliflarning fikrlariga ko’ra, yirik til modellari o’quvchilarga shaxsiy repetitor vazifasini bajarish, ularga moslashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqishi hamda refleksiv o’rganish jarayonlarini qo’llab-quvvatlashi mumkin. Bunday vositalardan foydalanish orqali o’quvchilar o’z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish, o’zlashtirishlarini nazorat qilish va o’quv yo’nalishlarini moslashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Lekin shu bilan bir qatorda, Kasneci va hammualliflar generativ sun’iy intellekt vositalarining imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning noto’g’ri yoki ishonchsiz ma’lumotlar yaratish ehtimoli mavjudligini ta’kidlaydi. Shu sababli, sun’iy intellekt vositalaridan haddan tashqari ko’p foydalanish o’quvchilarning tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini sustlashishiga olib kelishi mumkin [6].

Mobil ta’limga asoslangan yondashuvlar

Mobil ta’lim (Mobile Assisted Language Learning - MALL) mustaqil o’rganishning eng ommalashgan shakllaridan biri hisoblanadi. Mobil ilovalar o’quvchilarga istalgan vaqt va joyda ta’lim olish imkonini yaratadi. Duolingo, Memrise, Elsa Speak va BBC Learning English kabi ilovalar til o’rganish jarayonini o’yin elementlari bilan boyitib, foydalanuvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Kukulska-Hulme mobil texnologiyalar o’quvchilarga qisqa vaqt oralig’ida muntazam ravishda mashq qilish imkoniyatini berishini hamda ta’limning moslashuvchanligini ta’minlashini e’tirof etadi [7]. Biroq, gamifikatsiyaga ko’p tayanish ayrim hollarda qisqa muddatli motivatsiyani shakllantirib, uzoq muddatli til kompetensiyalarining rivojlanishini cheklashi mumkin.

Personalizatsiyalashgan o’rganish yondashuvi

Personalizatsiyalashgan o’rganish o’quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda o’quv jarayonini tashkil etishni anglatadi [8]. Zamonaviy ta’lim platformalari foydalanuvchilarning avvalgi natijalarini tahlil qilish orqali ularga mos o’quv materiallari va topshiriqlarni tavsiya etadi. Mazkur yondashuv o’quvchilarga o’zlashtirish jarayonini mustaqil ravishda belgilab, o’zlariga qiyinchilik tug’dirayotgan mavzular ustida ko’proq ishlash hamda individual rivojlanish bosqichlarini shakllantirish imkonini beradi.

Mikroo’rganish yondashuvi

Mikroo’rganish (microlearning) o’quv materiallarini kichik hajmdagi, qisqa muddatda o’zlashtiriladigan qismlarga ajratishga asoslanadi. Ushbu yondashuv bugungi kun yoshlarining axborotni tez qabul qilish xususiyatlariga mos keladi. YouTube shorts, TikTok, Instagram Reel va podkastlar mikroo’rganish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Bu resurslardan foydalanish orqali o’quvchilar kundalik faoliyati jarayonida yangi so’zlarni o’rganish, talaffuzlari ustida ishlash yoki qisqa grammatik mashqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo’ladilar [9]. Mikroo’rganishning samaradorligi Sweller tomonidan ishlab chiqilgan Kognitiv yuklama nazariyasi bilan izohlanadi. Uning nazariyasiga ko’ra, o’quv materiali qisqa va mantiqiy bloklarga ajratilganda ishchi xotiraga tushadigan yuklama kamayadi va axborotni o’zlashtirish samaradorligi ortadi [10].

Virtual hamkorlikka asoslangan yondashuv

Virtual hamkorlik til o’rganishda autentik kommunikativ muhit yaratishga xizmat qiluvchi muhim yondashuvlardan biri bo’lib, HelloTalk, Tandem, Discord va Speaky kabi

platformalar turli mamlakatlardan bo’lgan foydaluvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Reinders va White texnologiyalar yordamida tashkil etilgan hamkorlik muhiti o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot tajribasini oshirish hamda o’zini-o’zi boshqarish ko’nikmalarini shakllantirishga sezilarli tarzda yordam berishini ta’kidlaydi [5]. Shunday qilib, ingliz tilini o’rganishning yangi transformatsion yondashuvlari ta’lim berish va ta’lim olish jarayonlarini yanada moslashuvchan, interaktiv va o’quvchi ehtiyojlariga yo’naltirilgan shaklga keltirmoqda. Ushbu yondashuvlarning integratsiyalashgan holda qo’llanilishi o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ehtimoli yuqori.

1.1 – Jadval

Yondashuv turi	Asosiy vositalar	Transformatsion xususiyati	O’quvchining roli
Sun’iy intellektga asoslangan	ChatGPT, Gemini, Claude	Individual o’quv muhiti yaratadi	Faol foydalanuvchi va tahlilchi
Mobil ta’limga asoslangan	Duolingo, Memrise, Elsa Speak	Ta’limni vaqt va makondan mustaqil qiladi	Moslashuvchan o’rganuvchi
Personalizatsiyalashgan	Adaptiv platformalar	Individual trayektoriya yaratadi	O’z rivojlanishini boshqaruvchi
Mikroo’rganish	YouTube Shorts, podkastlar	Qisqa va uzluksiz o’rganishni ta’minlaydi	Tezkor bilim oluvchi
Virtual hamkorlik	Tandem, HelloTalk, Discord	Autentik kommunikativ muhit yaratadi	Hamkorlikdagi o’rganuvchi


Ingliz tilini mustaqil o’rganishning TIEL (Transformative Independent English Learning) konseptual modeli

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ingliz tilini mustaqil o’rganishning transformatsion yondashuvlarini integratsiyalovchi TIEL konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model mustaqil o’rganish jarayoning bosqichma-bosqich tashkil etilishini nazarda tutadi.

1.2 – Jadval

Bosqich	Asosiy vositalar	Pedagogik vazifasi	Natija
1	ChatGPT, Gemini	Diagnostika va maslahat	Individual ehtiyojlarni aniqlash
2	Adaptiv platformalar	Personalizatsiya	Individual trayektoriya
3	YouTube Shorts, podkastlar	Mikroo’rganish	Muntazam o’rganish
4	Tandem, HelloTalk	Virtual hamkorlik	Kommunikativ kompetensiya
5	Learning journal, self-assessment	Refleksiya	Learner autonomy

TIEL MODEL



Xulosa

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida ingliz tilini mustaqil o’rganish jarayoni an’anaviy yondashuvlardan sifat jihatdan farq qiluvchi yangi transformatsion bosqichga o’tmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari, mobil ta’lim, personalizatsiyalashgan o’rganish, mikroo’rganish hamda virtual hamkorlikka asoslangan yondashuvlar o’quvchilarga o’z ta’lim faoliyatini mustaqil tashkil etish, boshqarish va baholash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu yondashuvlarning umumiy xususiyati o’quvchini passiv bilim oluvchidan faol, mas’uliyatli va reflektiv o’rganuvchiga aylantirishidadir.

Tadqiqot davomida ingliz tilini mustaqil o’rganishning beshta transformatsion yondashuvi tizimlashtirildi hamda ular asosida TIEL (Transformative Independent English Learning) konseptual model taklif qilindi. Ushbu model sun’iy intellekt vositalari yordamida individual



ehtiyojlarni aniqlash, personalizatsiyalashgan o'quv trayektoriyalarini shakllantirish, mikroo'rganish orqali uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlash hamda refleksiya orqali o'quvchi avtonomiyasini rivojlantirish jarayonlarini yagona tizimda birlashtiradi.

Taklif etilgan modelning nazariy ahamiyati shuki, u o'quvchi avtonomiyasi, transformativ ta'lim va raqamli pedagogika konsepsiyalarini integratsiyalash orqali ingliz tilini mustaqil o'rganishning zamonaviy vositalarini yaxlit tizim sifatida izohlash imkonini beradi. TIEL modelida sun'iy intellekt diagnostikasi boshlang'ich bosqich sifatida tanlandi, chunki o'quvchining mavjud bilim darajasi, ehtiyojlari va qiyinchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Keyingi bosqichlarda personalizatsiya individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirsa, mikroo'rganish muntazam o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Virtual hamkorlik autentik kommunikativ tajriba hosil qilib, refleksiya esa o'quvchi avtonomiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa model ta'lim muassasalari, xorijiy til o'qituvchilari hamda mustaqil o'rganuvchilar uchun samarali o'quv muhitini shakllantirishda metodik asos bo'lib yordam bera oladi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu modelning samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish hamda turli yosh va ta'lim bosqichlaridagi o'quvchilar uchun moslashuvchanligini aniqlashda nazariy asos vazifasini bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mezirow J. Transformative Learning: Theory to Practice // *New Directions for Adult and Continuing Education*. 1997. No. 74. P. 5–12.
2. Holec H. *Autonomy and Foreign Language Learning*. Oxford: Pergamon Press, 1981.
3. Little D. *Learner Autonomy 1: Definitions, Issues and Problems*. Dublin: Authentik, 1991.
4. Benson P. *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. 2nd ed. London: Routledge, 2011.
5. Reinders H., White C. 20 Years of Autonomy and Technology: How Far Have We Come and Where to Next? // *Language Learning & Technology*. 2016. Vol. 20(2). P. 143–154.
6. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // *Learning and Individual Differences*. 2023. Vol. 103. Article 102274.
7. Kukulska-Hulme A. *Mobile-Assisted Language Learning [MALL]* // The Encyclopedia of Applied Linguistics. Wiley-Blackwell, 2013.
8. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
9. Hug T. *Microlearning: A New Pedagogical Challenge*. Innsbruck University Press, 2007.
10. Sweller J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning // *Cognitive Science*. – 1988. – Vol. 12, No. 2. – P. 257–285.
11. Tursunboyev A.A. Sun'iy intellekt muhitida ingliz tilini mustaqil o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari // “Raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika anjumani materiallari. – Namangan: Namangan davlat pedagogika instituti, 2026. – B. 284–288.
12. Tursunboyev A. A. *Pedagogical and Psychological Opportunities of Using Artificial Intelligence Tools in Independent English Language Learning* // *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*. – 2026. – Vol. 2, No. 4. – P. 325–333.